O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK TILIDAGI IJOBIY FE’L-ATVOR LEKSEMALARINING SEMANTIK TASNIFI

SEMANTIC CLASSIFICATION OF POSITIVE CHARACTER LEXEMES IN UZBEK

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/MOMG9855

Bekmuradova Iroda Zokir qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
irodabekmuradova9@gmail.com

Annotation. *The article examines lexemes denoting positive character traits in the Uzbek language on the basis of units selected from the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. Using componential analysis, ideographic classification and quantitative methods, the lexemes are divided into seven semantic groups and arranged according to the centre-periphery principle of the lexical-semantic field. The results show that lexemes of politeness and modesty, compassion and moral integrity make up nearly half of the core of the field, which reflects the collectivist, relationship-oriented nature of Uzbek culture. The findings can be applied in compiling linguocultural dictionaries, in teaching Uzbek as a foreign language and in translation practice.*

Keywords: *positive character lexemes, evaluation, semantic classification, lexical-semantic field, centre and periphery, Uzbek language.*

Globallashuv jarayoni milliy tillar oldiga ikki yoqlama vazifa qo‘yadi: bir tomondan, til xalqaro muloqot maydoniga faolroq chiqishi, ikkinchi tomondan, o‘zida mujassam bo‘lgan milliy-madaniy xususiyatlarni saqlab qolishi lozim. Tilning global nufuzi faqat uning so‘zlashuvchilari soni yoki qo‘llanish sohalari bilan emas, balki u orqali dunyoga taqdim etiladigan qadriyatlar tizimi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan inson fe’l-atvorini, ayniqsa jamiyat tomonidan ma’qullanadigan xislatlarni ifodalovchi leksika alohida ahamiyat kasb etadi: bu qatlamda xalqning “ijobiy inson” haqidagi tasavvuri, axloqiy me’yorlari va ideallari bevosita aks etadi.

Insonning fe’l-atvorini ifodalovchi leksika tilning inson omiliga bevosita aloqador qatlamlaridan biridir. Shaxsning muayyan xususiyatlarini nomlovchi so‘zlar nafaqat obyekt yoki hodisani ataydi, balki unga nisbatan jamiyatda

shakllangan munosabatni ham ifodalaydi. Shu jihatdan ijobiy fe’l-atvorni bildiruvchi leksemalar insonning jamiyat tomonidan ma’qullangan xususiyatlarini nomlovchi baholovchi birliklar sifatida alohida semantik tizimni tashkil etadi.

Tilshunoslikda baho kategoriyasi va baholovchi leksika masalalari keng o‘rganilgan. N.D. Arutyunova baho ma’nolarini umumbaholovchi va xususiy baholovchi turlarga ajratib, baholashning inson omili bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [1]. E.M. Volf baholashning funksional-semantik xususiyatlarini tadqiq etgan [2]. V.I. Karasik esa baholovchi birliklarni til va madaniyat munosabatlarini ochib beruvchi muhim vositalardan biri sifatida baholaydi [3].

O‘zbek tilshunosligida ham til birliklarining inson omili, milliy-madaniy mazmun va baholash bilan bog‘liq jihatlari tadqiq etilgan. N. Mahmudov til va inson, til va madaniyat munosabatlarini o‘rganish zarurligiga e’tibor qaratgan. A. Hojiyev esa o‘zbek tilining so‘z yasalishi tizimini tadqiq etgan.

Shunga qaramay, o‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining yaxlit semantik majmua sifatidagi tarkibi, guruhlari, ularning miqdoriy nisbati va leksik-semantik maydondagi markaz-periferiya munosabatlari masalasi alohida tadqiqotni talab qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tarkibini aniqlash, ularni mazmuniy belgilariga ko‘ra guruhlash hamda hosil bo‘lgan guruhlarning leksik-semantik maydondagi o‘rnini belgilashdan iborat.

Tilshunoslikda baho kategoriyasi va baholovchi leksika ko‘plab tadqiqotlarga obyekt bo‘lgan. N.D.Arutyunova baho ma’nolarini umumbaholovchi (*yaxshi*/*yomon*) va xususiy baholovchi turlarga ajratib, ularning inson omili bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatgan [Арутюнова, 1988: 71]. V.I.Karasik qadriyatlar tilda baholovchi birliklar orqali qayd etilishini, lingvomadaniy tadqiqotlarda aynan shu birliklar madaniyatning tayanch nuqtalarini ochib berishini ta’kidlagan [Карасик, 2002: 22].

O‘zbek tilshunosligida til va madaniyat munosabati, tilni inson omili bilan bog‘liq holda tadqiq etish masalalari N.Mahmudov ishlarida, so‘z yasalishi tizimi esa A.Hojiyev tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Ushbu maqolaning maqsadi mazkur leksemalarni izohli lug‘at materiallari asosida semantik jihatdan tasniflash va olingan natijalarni lingvomadaniy nuqtai nazardan talqin qilishdir.

Tadqiqot materiali sifatida tilimizda mavjud ijobiy fe’l-atvor bildiruvchi birliklar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan [O‘TIL, 2022] olingan. Tanlovda

so‘zning kamida bitta ma’nosi insonning ijobiy baholanadigan xususiyatini ifodalashi asosiy mezon qilib olindi. Har bir leksema lug‘at izohi va badiiy misollar asosida tahlil qilinib, semantik guruhi, yasalish turi, lug‘atdagi etimologik belgisi, ma’nolar soni va uslubiy belgilari qayd etilgan ma’lumotlar bazasi shakllantirildi.

Ijobiy fe’l-atvor leksemalari o‘zaro bir xil darajadagi birliklardan iborat emas. Ayrim leksemalarda fe’l-atvor ma’nosi bevosita va asosiy bo‘lsa, ayrimlarida u ikkilamchi yoki boshqa semantik belgilar bilan qo‘shilgan holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli tadqiqotda markaz va periferiya munosabatlari ham hisobga olindi. Markazga insonning muayyan ijobiy xususiyatini bevosita ifodalovchi leksemalar kiritildi: *kamtar, mehribon, sabrli, halol, mehnatkash* kabi. Periferiyaga esa ijobiy baho, mavqe yoki holatni bildiruvchi, fe’l-atvor ma’nosi ikkilamchi xususiyatga ega bo‘lgan birliklar joylashtirildi.

Leksikani tizim sifatida o‘rganishda maydon nazariyasi yetakchi o‘rin tutadi. Bu nazariyaga nemis tilshunosi Y. Trir asos solgan bo‘lib, unga ko‘ra so‘zlar tilda yakka holda emas, balki umumiy ma’no asosida birlashgan guruhlar, ya’ni maydonlar tarkibida mavjud bo‘ladi va har bir so‘zning qiymati maydondagi boshqa birliklar bilan munosabati asosida belgilanadi [Щур, 1974: 17]. Keyinchalik maydon tushunchasi leksikadan tashqari grammatika va funksional tilshunoslikda ham keng qo‘llanila boshladi. Markazni maydonning umumiy ma’nosini to‘liq, bevosita va boshqa ma’nolar aralashuvisiz ifodalovchi birliklar tashkil etadi. Periferiyada esa bu ma’no kuchsizlangan, ikkilamchi yoki boshqa maydon belgilari bilan qo‘shilib kelgan birliklar joylashadi.

Markazga inson fe’l-atvorini bevosita ifodalovchi leksemalar (*kamtar, mehribon, sabrli*), periferiyaga esa shaxsga berilgan ijtimoiy baho (*hurmatli, obro‘li*), umumiy ijobiy baho (*yaxshi, benuqson*) bildiruvchi birliklar kiritildi. Bu yondashuv N.D.Arutyunova ajratgan umumbaholovchi va xususiy baholovchi ma’nolar farqiga ham mos keladi: periferiyadagi so‘zlar asosan umumiy baho ifodalasa, markazdagilar bahoni insonning muayyan xislati bilan bog‘laydi.

Tahlil natijasida ijobiy fe’l-atvor leksemalari 7 ta semantik guruhga ajratildi. Ularning miqdoriy taqsimoti 1-jadvalda berilgan.

№	Semantik guruh	Misollar	Soni
	Markaz		

1	Muomala-odob va mehr-oqibatni ko‘rsatuvchi birliklar	*kamtar, odobli, xushmuomala, iboli, mehribon, saxiy, rahmdil, mehmondo‘st*	115
2	Axloqiy-ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga oid birliklar	*halol, vijdonli, rostgo‘y, vafoli, taqvodor, imonli, xudojo‘y, xalqparvar, erksevar, tinchliksevar*	80
3	Faoliyatga yo‘naltirilgan va irodaviy xususiyatlarni bildiruvchi birliklar	*mehnatkash, g‘ayratli, tashabbuskor, mard, sabrli, bardoshli, qat’iyatli*	83
4	Intellektual xususiyatni bildiruvchi birliklar	*aqlli, dono, zehnli, farosatli*	45
5	Emotsional-temperamentni bildiruvchi birliklar	*quvnoq, xushchaqchaq, sezgir*	31
Periferiya			
6	Ijtimoiy baho va mavqe	*hurmatli, obro‘li, mo‘tabar*	44
7	Umumbaholovchi	*yaxshi, ajoyib, benuqson*	38

1-jadval. Ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik guruhlar bo‘yicha taqsimoti

Jadvalga ko‘ra, markazdagi birliklar quyidagi besh guruhni tashkil etadi:

- muomala-odob va mehr-oqibatni ko‘rsatuvchi birliklar;
- axloqiy-ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga oid birliklar;
- faoliyatga yo‘naltirilgan va irodaviy xususiyatlarni bildiruvchi birliklar;
- intellektual xususiyatni bildiruvchi birliklar;
- emotsional-temperamentni bildiruvchi birliklar,=.

Ushbu guruhlardagi leksemalarning umumiy belgisi ularning shaxsning muayyan xususiyatini bevosita nomlashidir.

Periferiyada esa ikki guruh ajratiladi:

- ijtimoiy baho va mavqe;
- umumbaholovchi birliklar.

Muomala-odob va mehr-oqibatni ko‘rsatuvchi birliklar guruhi tadqiqotdagi eng yirik semantik guruh hisoblanadi. Unga *kamtar, kamtarin, odobli, xushmuomala, iboli, hayoli, bahayo, oriyatli, xokisor, tavozeli* kabi birliklar

kiradi. Guruh tarkibidagi birliklar umumiy “ijobiy fe’l-atvor” semasi bilan birlashsa-da, ularning farqlovchi semalari turlicha. Masalan, *kamtar* shaxsning o‘z qadrini yuqori qo‘ymasligi, o‘zini boshqalardan ustun tutmasligi bilan bog‘liq bo‘lsa, *odobli* jamiyatda qabul qilingan muomala va xulq me’yorlariga rioya qilishni bildiradi. *Xushmuomala* esa ijobiy munosabatning aynan kommunikativ jihatini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur guruh ichida bir-biriga yaqin, ammo semantik jihatdan aynan bir xil bo‘lmagan sinonimik qatorlar shakllanadi. Masalan, kamtarlik bilan bog‘liq *kamtar, kamtarin, xokisor, tavozeli, sertavoze, xushtavoze* kabi birliklar umumiy semantik o‘zakka ega bo‘lsa-da, ularda mazmuniy va uslubiy farqlar mavjud. Demak, guruhning yuqori miqdoriy ko‘rsatkichi uning faqat birliklar soni jihatidan emas, balki ichki semantik differensiallashuvi jihatidan ham murakkab ekanini ko‘rsatadi. Bu guruhdagi yana bir umumiy sema “boshqalarga nisbatan ijobiy munosabat” tarzida ifodalanishi mumkin, biroq mazkur umumiy sema turli yo‘nalishlarda konkretlashadi: *mehribon* mehr va iliq munosabatni, *rahmdil* boshqalarning holatiga achinish va hamdardlikni, *saxiy* o‘zidagi narsani boshqalar bilan baham ko‘rishga moyillikni bildiradi. Shunday qilib, mazkur guruh ichida insonlararo munosabatning emotsional, axloqiy va ijtimoiy ko‘rinishlari kesishadi.

Axloqiy-ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga oid birliklar guruhi shaxsning axloqiy me’yorlarga munosabatini ifodalaydi. *Halol, vijdonli, rostgo‘y, vafoli* kabi birliklar guruhning asosiy vakillaridir. Bu guruhda ijobiy baho bevosita shaxsning axloqiy pozitsiyasiga bog‘lanadi. Masalan, *rostgo‘y* rost gapirish xususiyatini, *vijdonli* axloqiy mas’uliyatni, *vafoli* esa munosabat va majburiyatlarga sodiqlikni ifodalaydi. *Xalqparvar, erksevar, tinchliksevar* kabi leksemalar shaxsning ijtimoiy va g‘oyaviy qadriyatlarga munosabatini bildiradi. Mazkur birliklarning umumiy jihati shundaki, ular shaxsning tashqi xatti-harakatidan ko‘ra, uning axloqiy tamoyillari va ichki pozitsiyasini tavsiflashga ko‘proq xizmat qiladi. Ushbu guruhdagi birliklarda ijobiy baho individual xarakter xususiyatidan tashqari, shaxsning muayyan ijtimoiy qadriyatga munosabati bilan ham bog‘lanadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan va irodaviy xususiyatlarni bildiruvchi birliklar guruhi insonning faoliyatga hamda shaxsning qiyinchilik, to‘siq va murakkab vaziyatlarga munosabatini bildiradi. Guruhdagi birliklar shaxsning harakatga tayyorligi, mehnat jarayonidagi faolligi va maqsadga intilishini turli jihatlardan ifodalaydi. Shunday qilib, mazkur guruhdagi umumiy sema faoliyat jarayonida

ijobiy xususiyat namoyon qilish va shaxsning ichki barqarorligi va qiyinchilikni yengishga tayyorligi bilan bog‘liq.

Intellektual guruh shaxsning aqliy qobiliyati va bilish faoliyati bilan bog‘liq ijobiy xususiyatlarni ifodalaydi. *Aqlli, dono, zehnli, farosatli* kabi leksemalar ushbu guruhga mansub. Bu birliklarda umumiy ijobiy baho aqliy salohiyat bilan bog‘lanadi, biroq ular bir xil semantik mazmunga ega emas: *aqlli* umumiy aqliy qobiliyatni, *dono* hayotiy tajriba va mulohazakorlikni, *zehnli* tez anglash va o‘zlashtirish qobiliyatini, *farosatli* esa vaziyatni anglash va to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalashi mumkin. Demak, intellektual guruhning ichki tarkibi ham umumiy “aqliy salohiyat” semasining turli komponentlar orqali konkretlashishiga asoslanadi.

Emotsional-temperament guruhi shaxsning emotsional holati va temperamentiga xos ijobiy belgilarni ifodalaydi. *Quvnoq, xushchaqchaq, sezgir* kabi birliklar shular jumlasidandir. Ushbu guruhning boshqa guruhlardan farqi shundaki, unda ijobiy baholash ko‘proq shaxsning emotsional tabiati va ruhiy reaksiyalari bilan bog‘lanadi. Masalan, *quvnoq* va *xushchaqchaq* shaxsning ijobiy kayfiyatini, *sezgir* esa atrofdagi hodisa va insonlarning holatiga tez munosabat bildirish xususiyatini ifodalaydi.

Ijtimoiy baho va mavqe guruhiga *hurmatli, obro‘li, mo‘tabar* kabi birliklar kiradi. Bunda shaxsning muayyan xarakter xususiyati emas, balki jamiyatdagi maqomi yoki unga nisbatan shakllangan munosabat birlamchi bo‘ladi.

Umumbaholovchi birliklarda esa ijobiy baho yanada umumiy ko‘rinishga ega: *yaxshi, ajoyib, benuqson* kabi leksemalar konkret xarakter belgisini emas, shaxs yoki obyektga berilgan umumiy ijobiy bahoni ifodalashi mumkin. Shu jihatdan markazdan periferiya tomon harakatlanganda “ijobiy fe’l-atvor” semasining mustaqilligi kamayib, boshqa semantik belgilar: ijtimoiy baho, holat, mavqe yoki umumiy baho kuchayib boradi.

Tadqiqotda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muhim jihatlardan biri ijobiy fe’l-atvor leksemalarining ko‘p ma’noliligidir. Bu holat ijobiy fe’l-atvor leksikasini o‘rganishda leksema va semema munosabatini farqlash zarurligini ko‘rsatadi, chunki ko‘p ma’noli so‘zning barcha ma’nolari ham fe’l-atvorni ifodalamaydi. Masalan, *barakali* leksemasi umumiy holda to‘kin-sochinlik yoki serunumlikni bildirishi mumkin, biroq *barakali kelin* kabi qo‘llanishlarda shaxsga nisbatan ijobiy baho yuzaga keladi. Shundan kelib chiqib, ijobiy fe’l-atvor leksikasining chegaralarini belgilashda so‘z emas, semema asosida tasniflash metodologik jihatdan muhimdir. Bu yondashuv bir

leksemaning turli ma’nolarini sun’iy ravishda bitta semantik guruhga birlashtirishning oldini oladi.

Yuqoridagi jadvalda ajratilgan guruhlar qat’iy va bir-biridan uzilgan semantik bo‘laklar sifatida qaralmasligi kerak. Ular o‘rtasida semantik kesishuvlar mavjud. Masalan, *saxiy* leksemasida mehr-shafqat bilan bir qatorda axloqiy ijobiylik ham namoyon bo‘lishi mumkin. *Sabrli* shaxsning irodaviy xususiyatini bildirsa-da, u axloqiy-ma’naviy baholash bilan ham bog‘lanadi. *Xushmuomala* esa bir vaqtning o‘zida muomala-odob va insonlararo ijobiy munosabat semalarini birlashtiradi. Bunday kesishuvlar semantik guruhlar o‘rtasida mutlaq chegaralar mavjud emasligini ko‘rsatadi. Guruhlashning vazifasi leksemalarni sun’iy ravishda ajratish emas, balki ularning dominant semantik belgisini aniqlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan ijobiy fe’l-atvor maydonini markazida shaxsning bevosita xarakter xususiyatlari joylashgan, periferiyasida esa ushbu xususiyatlar bilan chegaradosh umumiy baho, ijtimoiy mavqe va holat ma’nolari mavjud bo‘lgan tizim sifatida tasavvur qilish mumkin.

Shunday qilib, o‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” materiallari asosida leksemalar umumiy ijobiy fe’l-atvor semantikasi doirasida birlashsa-da, mazmuniy jihatdan bir xil tarkibga ega emas. Ular 7 ta semantik guruhga ajratildi.

Ikkinchidan, miqdoriy jihatdan eng katta guruhni muomala-odob va mehr-oqibatni ko‘rsatuvchi birliklar tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda axloqiy-ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga oid birliklar hamda faoliyatga yo‘naltirilgan va irodaviy xususiyatlarni bildiruvchi birliklar guruhlari turadi. Bu guruhlarning ustunligi ijobiy fe’l-atvor tushunchasining, avvalo, shaxsning boshqalar bilan munosabati, axloqiy pozitsiyasi va faoliyatiga oir xususiyatlar orqali ifodalanishini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ijobiy fe’l-atvor leksemalari leksik-semantik maydonda markaz va periferiya munosabatiga ega. Markazda shaxsning muayyan ijobiy xususiyatini bevosita ifodalovchi birliklar, periferiya tomon esa umumiy baho, ijtimoiy mavqe va holat ma’nolari kuchaygan birliklar joylashadi.

To‘rtinchidan, ko‘p ma’nolilik mazkur leksik qatlamning muhim xususiyatlaridan biridir. Mazkur xususiyat ijobiy fe’l-atvor leksikasini tasniflashda leksemaning o‘zini emas, aynan tegishli sememasini tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, semantik guruhlar o‘rtasidagi chegaralar mutlaq emas. Ayrim leksemalarda bir nechta semantik belgi birlashadi. Shu sababli guruhlashda birlikning dominant semantik belgisi asosiy mezon sifatida qaralishi lozim.

Umuman, o‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksikasi ichki jihatdan murakkab, markaz va periferiya munosabatlariga ega bo‘lgan leksik-semantik maydonni tashkil etadi. Mazkur maydonning asosiy qismini insonning muomala madaniyati, axloqiy fazilatlari, boshqalarga munosabati hamda individual qobiliyat va imkoniyatlarini ifodalovchi leksemalar tashkil qiladi. Ushbu semantik tizimni batafsil o‘rganish o‘zbek tilidagi inson va uning xususiyatlarini nomlovchi leksikaning tizimli tabiatini ochib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988.

2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.

3. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976.

4. Щур Г. С. Теории поля в лингвистике. – М.: Наука, 1974.

5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2012. – №5. – B. 3–16.

6. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**